

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***60810500 – O'simliklar himoyasi va karantini bakalavriat  
ta'lif yo'naliшining***

***MALAKA TALABLARI***

**Toshkent-2024**



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent davlat agrar universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “25” iyun dagi 218 – sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilar takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
<b>1. Umumiy tavsifi.....</b>	4
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari .....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	6
<b>3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....</b>	7
<b>4. Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	7
Bibliografik ma'lumotlar.....	9
<b>Kelishuv varag'i.....</b>	10

## **1. Umumiy tavsifi**

60810500 – O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 60810500 – O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruvi xodimlari (rektor, prorektorlar, akademik faoliyat va registrar boshqarmasi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

60810500 – O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi-fan sohasidagi bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'lib, umumiyo'rta, o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi muassasalarida ta'lim yo'nalishiga oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, umumiyo'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalari majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

O‘zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy – tadqiqot institutlarida;

qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi idoralarda;  
oliy ta’lim va professional ta’limi muassasalarida;

davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar, klasterlar), ishlab chiqarish birlashmalar va boshqarmalarida;

ishlab chiqarish korxonalarida

davlat boshqaruvi organlari, oliy ta’lim va professional ta’limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalarni yechish.

*60810500 – O’simliklar himoyasi va karantini* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgan taqdirda, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. O‘zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy – tadqiqot institutlarida, agroklasterlarda, qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi idoralarda kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo‘ladi.

#### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy–tadqiqot;*
- *tashkiliy–boshqaruv;*
- *loyihaviy–konstrukturlik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

#### **1.2.4. Kasbiy vazifalari:**

*60810500 – O’simliklar himoyasi va karantini* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

##### **Ilmiy tadqiqot faoliyati;**

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;

ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta’lim yo‘nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy –amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo‘yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy-texnikaviy ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlili qilish va olingan ma’lumotlarni tizimlashtirishda ishtiroy etish;

o'simliklarni himoya qilish fani sohasiga oid ilmiy –tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlənmalarini amaliyatga tədbiq etishda qatnashishi bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

O'simliklar himoyasi va karantini sohasida mavjud texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko'rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko'rish;

O'simliklar himoyasi va karantini sohasida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalshtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyatga tatbiq etish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

qishloq xo'jalik o'simliklari zararli organizmlari tur tarkibini aniqlash, o'simliklarni kasallik, zararkunanda va begona o'tlardan himoya qilish va karantinda samarali va resurstejamkor faoliyatni tashkil eta olish;

pullik ta'lif xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

### **Loyihaviy-konstrukturlik faoliyatida:**

O'simliklar himoyasi va karantini sohalarida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini loyihalash, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

## **2. Kasbiy kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar**

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo'llay olishi;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni;

qishloq xo'jalik ekinlarida uchraydigan zararli organizmlarni turlarini aniqlay olishi hamda agrobiotsenozlarda zararli organizmlar rivojlanishi va tarqalish xaritasini tuzishi;

qishloq xo'jaligida o'simliklar himoyasi va karantini, tadbirlarning bajarilishi sifatini aqlli (smart) texnologiyalar yordamida nazorat qila olishi;

o'simliklarni himoya qilish, biologik vositalarni ko'paytirish va qo'llash texnologiyalari, pestitsidlardan amalda foydalanishni ekologik xavfsiz usullari va vositalarini qo'llash bo'yicha bilimlarni egallashi;

qishloq xo'jalik ekinlari kasalliklari va zararkunandalarini hisobga olish, paydo bo'lishini hamda tarqalishini bashorat qila olishi;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tadbiq qilish, texnologik jarayonlarni loyihalash va ularni amalda joriy qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

### 3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lif yo'naliishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiylukda yuzlamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestr i
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5040</b>	<b>168</b>	<b>1-8</b>
1.01	O'EYTB1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	FALB1504	Falsafa	120	4	5
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O'T O'SQB1204	O'zbek (rus) tili: O'zbek tilini sohada qo'llash	120	4	2
1.06	JMSB1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	ENMSB1104	Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika	120	4	1

1.08	ANFKBKB1104	Analitik, fizkolloid va bioorganik kimyo	120	4	1
1.09	BO·FZB1208	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	240	8	1,2
1.10	QXITTB1204	Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalar	120	4	2
1.11	QXAKTB1204	Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	120	4	2
1.12	UENHSB1110	Umumiy entomologiya va hashoratlar sistematikasi	300	10	1,2
1.13	TPAKB1308	Tuproqshunoslik va agrokimyo	240	8	3,4
1.14	UFTMKB1310	Umumiy fitopatologiya va mikrobiologiya	300	10	3,4
1.15	DHMELB1308	Dehqonchilik va melioratsiya	240	8	3,4
1.16	O·SHPB1306	O'simlikshunoslik va paxtachilik	180	6	3
1.17	O·SIMB1306	O'simliklar imuniteti	180	6	3
1.18	MIKLB1406	Mikologiya	180	6	4
1.19	O·KZKB1508	O'simliklarning karantin zararkunandalari va kasalliklari	240	8	5,6
1.20	MEVSABB1508	Mevachilik va sabzavotchilik	240	8	5,6
1.21	O·KFNDB1506	O'simliklar karantinida fitosanitar nazorat va diagnostika	180	6	5
1.22	ISEHQB1606	Issiqxona ekinlarini himoya qilish	180	6	6
1.23	QXENTOB1608	Qishloq xo'jaligi entomologiyasi	240	8	6,7
1.24	QXFITOB1608	Qishloq xo'jalik fitopatologiyasi	240	8	6,7
1.25	O·BHQB1706	O'simliklarni biologik himoya qilish	180	6	7
1.26	O·KHQATB1706	O'simliklarni kimyoviy himoya qilish va agrotoksikologiya	180	6	7
1.27	O·MKFTEB1706	O'simliklar va maxsulotlar karantinida fitoekspertiza	180	6	7
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>840</b>	<b>28</b>	<b>(3,4,5,7)</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	840	28	(3,4,5,7)
<b>Kvalifikatsiya</b>		Agronom, entomolog, fitopatolog, karantin-inspektor			
		<b>Jami:</b>	<b>5880</b>	<b>196</b>	
		Malakaviy amaliyot	1320	44	(2,4,6,8)
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
		<b>Jami:</b>	<b>1320</b>	<b>44</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

O'simliklar himoyasi va karantini, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lif yo'nalishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, hasharot, kanalar, nematodalar, kemiruvchilar, entomologiya, fitopatologiya, zamburug', bakteriya, viruslar, umurtqasizlar, umurtqalilar, o'rgimchakkana, entomofag, akarifag, o'simlik, zararkunandalari, kasalliklar, begona o'tlar, pestitsidlar, entomofaglar, kimyoviy, biologik, agrotexnik usullar, uyg'unlashgan kurash.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**



M.O.

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor S. Islamov

2024 yil «8» 06



M.O'.

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Rektor T. Sultanov

2024 yil «8» 06

**KELISHILDI:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor M. Boltabayev

2024 yil «20» 06

M.O'.

O'simliklar karantini va himoyasi  
ilmiy tadqiqot instituti

Direktor A. Anorbayev

2024 yil «11» 06

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi  
Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi  
o'simliklar karantini va himoyasi  
agentligi

Direktor A. Ergashev

2024 yil «11» 06

M.O'.

"Agro Servis Torg" MCHJ-QK

Direktor O. Jurayev

2024 yil «11» 06

